



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - aprel

VI-60-75-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**Tumanda aholi va tadbirkorlik subyektlarini elektr energiyasi, tabiiy va suyultirilgan gaz hamda ko‘mir bilan ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan “Surxondaryo hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” aksiyadorlik jamiyati Angor tuman elektr ta‘minoti korxonasi va “Hududgazta‘minot”AJ “Hududgaz Surxondaryo” gaz ta‘minoti filiali “Angortumangaz” gaz ta‘minoti bo‘limi rahbalarining axboroti to‘g‘risida**

Tumanda aholi va tadbirkorlik subyektlarini elektr energiyasi, tabiiy va suyultirilgan gaz hamda ko‘mir bilan ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan “Surxondaryo hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” aksiyadorlik jamiyati Angor tuman elektr ta‘minoti korxonasi boshlig‘i Sh.Shonazarov va “Hududgazta‘minot”AJ “Hududgaz Surxondaryo” gaz ta‘minoti filiali “Angortumangaz” gaz ta‘minoti bo‘limi rahbalari Z.Karimovning axboroti eshitilib, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24–moddalariga muvofiq xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Tumanda aholi va tadbirkorlik subyektlarini elektr energiyasi, tabiiy va suyultirilgan gaz hamda ko‘mir bilan ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan “Surxondaryo hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” aksiyadorlik jamiyati Angor tuman elektr ta‘minoti korxonasi boshlig‘i Sh.Shonazarov va “Hududgazta‘minot”AJ “Hududgaz Surxondaryo” gaz ta‘minoti filiali “Angortumangaz” gaz ta‘minoti bo‘limi rahbalari Z.Karimovning axborotlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

**2. Tuman elektr tarmoqlari korxonasi (Sh.Shonazarov), tuman hokimining o‘rinbosari (U.Raxmatov)ga:**

– **2023–yil 1–iyul kuniga qadar** tumanning “Madaniyat” mahallasi Yoshlik ko‘chasida yonma–yon o‘rnatilgan 2 ta transformator punktining 1 donasini shu mahallaning aholi zich joylashgan, elektr kuchlanishi past bo‘lgan Bog‘ishamol

ko‘chasiga ko‘chirish;

– “Farovon” mahallasida aholi muammolarini joyiga chiqqan holda o‘rganib, elektr energiyasi kuchlani past bo‘lgan hududlariga qisqa muddat ichida qo‘shimcha taransformator o‘rnatish;

– hududlarga biriktirilgan mas’ullar nazorat tadbirlari tashkil etib, elektr energiyasidan noqonuniy foydalangan iste’molchilarning elektr qurilmalarini tarmoqdan ajratib, holat bo‘yicha rasmiylashtirilgan hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborish;

– “Qadimiy Angor” va “Markaz” mahallalariga dastur doirasida o‘z vaqtida o‘rnatilmagan transformator punktlarini **joriy yilning sentabr oyi oxiriga qadar** o‘rnatib, yakuniga yetkazish;

– elektr energiyasi ta’minotidagi yuqori yuklama jarayonlarida aholiga bir maromda elektr energiyasi yetkazib berilishini ta’minlash;

– ko‘p kvartirali uylarda elektr energiyasidan xavfsiz foydalanish qoidalariga rioya etilishi holatini o‘rganish va uy–joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi bilan birgalikda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

– elektr tarmoqlari va transformator punktlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish;

– berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida **ikkinchi chorak yakuni bilan** tuman Kengashiga axborot berish vazifalari yuklatilsin.

### **3. Tuman gaz ta’minoti filiali (Z.Karimov):**

– tabiiy gaz tarmoqlari, gaz taqsimlash punktlari va boshqa jihozlarni ta’mirlash, bo‘yash, taftishdan o‘tkazish, rostlash va sinovdan o‘tkazish va sifatli foydalanishga topshirilishini tashkil qilish;

– iste’molchilarga suyultirilgan gazni tasdiqlangan grafik asosida barqaror yetkazib berish;

– tabiiy gaz qurilmalarini ta’mirlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash vazifalari topshirilsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida **har chorak yakuni** bilan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Sadatov) zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Sessiya raisi**



**X.Xolmurodov**